



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

## LEGAL BENEFITS AND OPPORTUNITIES IN THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP

*Shakhrizoda Toshmamatova*

3rd-year student, "Jurisprudence" program

Berdakh Karakalpak State University

Nukus, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** women's entrepreneurship, legal benefits, financial support, microloans, business incubators, economic activity.

**Abstract:** The article analyzes the legal incentives and opportunities aimed at developing women's entrepreneurship in Uzbekistan. Today, women are becoming more active in the business sector, and the state provides various financial, tax, and social benefits to support them. The article examines existing legislative acts, including regulatory documents on starting and developing entrepreneurship.

**Received:** 19.04.26

**Accepted:** 20.04.26

**Published:** 21.04.26

## AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY IMTIYOZLAR VA IMKONIYATLAR

*Shaxrizoda Toshmamatova*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

"Jurisprudensiya" yo'nalishi 3-kurs talabasi

Nukus, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** ayollar tadbirkorligi, huquqiy imtiyozlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mikroqarzarlar, biznes inkubatorlari, iqtisodiy faollik.

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy imtiyozlar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Bugungi kunda ayollar biznes sohasida faollashmoqda va davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlash uchun turli moliyaviy, soliq va ijtimoiy imtiyozlar taqdim etilmoqda. Maqolada mavjud qonunchilik hujjatlari, jumladan, tadbirkorlikni boshlash va rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlar ko'rib chiqilgan.

## ПРАВОВЫЕ ЛЬГОТЫ И ВОЗМОЖНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

**Шахризода Тошмаматова**

*Студентка 3 курса направления «Юриспруденция»*

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха*

*Нукус, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
женское предпринимательство, правовые льготы, финансовая поддержка, микрозаймы, бизнес-инкубаторы, экономическая активность.	В статье анализируются правовые льготы и возможности, направленные на развитие женского предпринимательства в Узбекистане. Сегодня женщины активизируются в сфере бизнеса, и государство предоставляет различные финансовые, налоговые и социальные льготы для их поддержки. В статье рассматриваются существующие законодательные акты, в том числе нормативные документы, касающиеся открытия и развития предпринимательства.

**Kirish.** Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi bugungi kunda nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy o‘shish strategiyasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e‘lon qilganidan so‘ng ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan qonuniy bazani izchil shakllantirib bormoqda. Bu jarayonda asosiy huquqiy tamoyillarni belgilab beruvchi hujjatlardan biri 2019-yil 23-avgustda qabul qilingan O‘RQ-562-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun [1] bo‘lib, u jinsiy tenglikni ta‘minlash tamoyillarini belgilaydi va ayollar hamda erkaklar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlarni kafolatlaydi. Qonun birinchi bo‘limida “davlat ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni kafolatlashga majburdir” deb aniq nazarda tutilgan, bu esa ayollarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirokini ta‘minlashga bevosita ta’sir qiladi. Yana bir muhim hujjat - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 7-martda imzolangan PF-87-sonli Farmon “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” bo‘lib, u ayollarga yo‘naltirilgan moliyaviy va institut-sional yordamni yanada rivojlantirishni maqsad qiladi [2]. Ushbu Farmon doirasida ayollar biznesini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, treninglar hamda konsultatsiyalarni amalga oshirishga oid mexanizmlar joriy etildi, bu esa

tadbirkorlik faoliyatini boshlash va biznesni barqarorligini ta'minlash uchun real imkoniyatlar yaratadi.

Yuridik maydonda ayollar uchun teng huquqlarni mustahkamlashda O'zbekiston Konstitutsiyasi ham asosiy rol o'ynaydi [3]. Masalan, Konstitutsiyaning 42-moddasi ayollarni homiladorlik yoki bolasi borligi sababli ishdan bo'shatish, ish haqi kamaytirish kabi diskriminatsion holatlardan himoya qiladi va ayollarga teng mehnat huquqlarini kafolatlaydi. Bu norma gender tengligi tamoyilini Konstitutsiya darajasida mustahkamlaydi va ayollar tadbirkorlar uchun ham muhim huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi. Bu huquqiy bazani mustahkamlash bilan birga, hukumat jamiyatda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun amaliy dasturlarni ham joriy etmoqda. Misol uchun, 2025-yilda ishga tushirilgan HAMROH Ayollar Tadabirkorligini Qo'llab-quvvatlash Dasturi doirasida 2 trillion so'm miqdorida mablag' ajratilib, bu mablag' orqali 6 000 dan ortiq ayol biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar, 2 800 ayol uchun biznes bo'yicha treninglar va 2 000 mentorlik dasturlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bu yirik moliyaviy qo'llab-quvvatlash ayollarni o'z biznesini boshlash va rivojlantirishda mustahkam imkoniyat yaratadi. Shuningdek, gender tenglikni amalga oshirishda xalqaro huquqiy normalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi 1995-yil 6-mayda BMTning Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishni bartaraf etish konvensiyasi (CEDAW) ni ratifikatsiya qilgan [4]. Bu konvensiyaga ko'ra davlat ayollarga iqtisodiy resurslar, ta'lim, moliyaviy vositalar va biznes imkoniyatlariga teng kirish huquqini ta'minlashga majbur, bu esa milliy qonunchilik va davlat dasturlarining shakllanishida nazarda tutilgan.

Ayni paytda amaliyot shuni ko'rsatadiki, huquqiy kafolatlar mavjud bo'lishiga qaramay, ayollar tadbirkorlikda moliyaviy resurslar, bozor imkoniyatlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga kirishda hali ham to'siqlar mavjud. Shu sababli davlat yana ham sezgir siyosat yurutib, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, biznesga kirish jarayonlarini soddalashtirish va gender bo'yicha huquqiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishdagi huquqiy imtiyozlar va imkoniyatlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, farmonlar va rasmiy statistika ishlatildi. Analitik usul orqali raqamlar va ko'rsatkichlar solishtirildi, ularning o'sish tendensiyalari aniqlanadi. Jadval va diagrammalar yordamida iqtisodiy natijalar vizual tarzda ko'rsatildi. Shuningdek, huquqiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ayollarga berilayotgan imkoniyatlarning samaradorligini aniqlash va takliflar ishlab chiqishdir.

**Tahlil va natijalar.** So‘nggi bir necha yilda O‘zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosat va chora-tadbirlar iqtisodiyotda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Milliy statistika ma‘lumotlariga ko‘ra [5], 2024-yilda mamlakat bo‘yicha faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar soni 2,1 million nafarga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan taxminan 7 barobar o‘shishni anglatadi. Bu ko‘rsatkich ayollar iqtisodiyotdagi ishtirokining sezilarli darajada kengayganidan dalolat beradi.

2025-yil boshida Milliy statistika qo‘mitasi xabariga ko‘ra, ayol boshqaruvidagi kichik biznes va mikrofirmalar soni 43 860 tani tashkil etdi, ularning aksariyati xizmat ko‘rsatish va savdo sohalarida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, ayol tadbirkorlar yetakchiligidagi korxonalar umumiy daromadi ham muntazam ravishda o‘smoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, bu korxonalar jami 47,7 trillion so‘m daromad qayd etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan (taxminan +27 %). Bundan tashqari, yana boshqa statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda ayol boshqaruvidagi kichik kompaniyalar va mikrofirmalar jami 20 000 dan ortiq bo‘lib, ularning umumiy sof foydasi 4,2 trillion so‘mni tashkil etdi. Bir firmaga o‘rtacha sof foyda esa 202,6 million so‘m atrofida bo‘ldi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston bo‘yicha ayollar tadbirkorligi bo‘yicha muhim ko‘rsatkichlar jamlangan:

#### O‘zbekiston ayollar tadbirkorligi statistikasi (2024) [5]

Ko‘rsatkich	Miqdori
Ayol tadbirkorlar soni	2 100 000 ta
Ayol boshqaruvidagi firmalar	43 860 ta
Sof daromad (ayol boshqaruvida)	47.7 trillion so‘m
Sof foyda (ayol boshqaruvidagi firmalar)	4.2 trillion so‘m
O‘rtacha sof foyda per kompaniya	202.6 million so‘m

Manba: Milliy Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

#### Ayollar boshqaruvidagi firmalarning sohalardagi taqsimoti (2024) [5]

Soha	Miqdori
Xizmat ko‘rsatish	17 239 ta firma
Savdo	17 161 ta firma
Sanoat	5 464 ta firma
Boshqa sohalar	3 996 ta firma

Manba: Milliy Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu jadval va statistik ma‘lumotlar shuni tasdiqlaydi: ayollar tadbirkorligi iqtisodiyotda faqat son jihatdan ko‘paymayapti, balki sifati bo‘yicha ham ijobiy dinamika ko‘rsatmoqda. Ayollar rahbarligidagi firmalar sonining o‘shishi (43 860) va bu firmalarning jami daromadining 47,7 trillion so‘mga yetgani ularning iqtisodiy faoliyatining barqarorligini ko‘rsatadi.

Bu o'sishning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Davlat tomonidan yaratilib kelayotgan qulay huquqiy va moliyaviy imkoniyatlar - biznesni boshlash va yuritish uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va treninglar ayollar uchun sezilarli qo'llab-quvvatlashni ta'minlamoqda.

2. Ayollar tadbirkorlik dasturlarining faol tatbiq etilishi, jumladan UNDP bilan hamkorlikdagi Women Entrepreneurship Support Programme (WESP), ayollarni biznes rejalashtirish, moliyaviy savodxonlik va marketing bo'yicha qo'llab-quvvatlamoda.

3. Kengaytirilgan trening va mentoring dasturlari, ayniqsa xizmat ko'rsatish va savdo sohaslarida faoliyat yuritishga qaratilgan imkoniyatlar, ayollar biznesining o'sishiga xizmat qilmoqda.

Ayollar tadbirkorligi rivojlanishi ijtimoiy tarmoqlarda daromadning oshishi bilan birga, bandlikni oshirishga ham sezilarli hissa qo'shmoqda [6]. Masalan, ayol boshqaruvidagi firmalar orqali yuzlab yangi ish joylari yaratilmoqda, bu umumiy bandlik darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu jarayon ayollarning o'z biznesini boshqarish bo'yicha malaka va innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi, bu esa iqtisodiy raqobatbardoshlik va barqaror o'sishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligi nafaqat son jihatdan ko'payib bormoqda, balki u iqtisodiyotga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayollar boshqaruvidagi bizneslar daromad yaratishda, bandlikni oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Davlat va xalqaro tashkilotlar qo'llab-quvvatlovchi dasturlari ayollar tadbirkorlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda va kelgusi yillarda bu rivojlanish istiqboli yanada mustahkamlanishi kutiladi.

**Muhokama.** O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks siyosat yuritmoqda. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlari huquqiy kafolatlar yaratish, imtiyozli moliyaviy yordam ko'rsatish, ta'lim va treninglar orqali malaka oshirish hamda ayollarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishdir. Yuqoridagi tahlil ko'rsatkichlari bu siyosatning natijalari haqida muhim ma'lumotlar beradi, biroq ularning samaradorligini yanada chuqurroq tahlil qilganda, bir qancha ijobiy natijalar bilan birga ayrim cheklovlar ham aniqlanadi.

Avvalo ayollar tadbirkorligi sohasidagi huquqiy imkoniyatlarning kengayishi statistik ko'rsatkichlarda yaqqol aks etmoqda. Masalan, "O'zbekiston Respublikasining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun ayollarga biznesni erkin boshlash va yuritish huquqini davlat kafolati bilan ta'minlab, tadbirkorlarning soni sezilarli

o'sishiga xizmat qildi. Bu qonun asosida yaratilgan huquqiy maydon ayollarga iqtisodiy resurslarga teng kirish huquqini mustahkamladi va natijada 2,1 million nafarga yaqin ayol tadbirkor faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon orqali imtiyozli kreditlar, grantlar va qo'llab-quvvatlash dasturlari joriy etildi. Bu Farmonning amaliy natijalari yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki, ayol boshqaruvidagi firmalar soni 43 860 taga yetdi, shu bilan birga daromad va sof foyda ham sezilarli o'sdi. Farmon ayollarni biznes loyihalarini ro'yobga chiqarish uchun zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlab, ularni bozor sharoitida raqobatbardosh qilishga xizmat qildi. Biroq muhokama jarayonida ayrim cheklovlar ham o'zini ko'rsatmoqda. Masalan, ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga kirishi huquqiy kafolatlar orqali mustahkamlangan bo'lsa ham, amaliyotda moliyaviy resurslarga kirish hali ham murakkab bo'lib qolmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayollar biznesining barqarorligi uchun qulay kredit liniyalarining mavjudligi muhim hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida ham mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari jozibador bo'lsa-da, ayrim hududlarda bank xizmatlariga kirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa kichik biznes sub'ektlarini kengaytirishda to'siq bo'lib qolmoqda. Yana bir cheklov - bu ayollar tadbirkorligidagi malaka va bilim darajasining turlicha bo'lishidir. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayol tadbirkorlarning samaradorligini oshirishda biznes strategiyalari, raqamli savodxonlik va moliyaviy boshqaruv bo'yicha treninglar juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham hukumatning qo'llab-quvvatlash dasturlariga qo'shimcha ravishda, ayollar biznes akademiyalari, mentoring dasturlarini kengaytirish uchun yana ko'proq resurs ajratilishi zarur.

Ijobiy tomondan, O'zbekiston ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda xalqaro standartlar va tajribalarni ham tatbiq qilmoqda. Masalan, BMTning Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishni bartaraf etish konvensiyasi (CEDAW) davlat siyosatiga integratsiya qilingan bo'lib, bu hujjat ayollarning moliyaviy, ijtimoiy va biznes resurslarga kirishini kafolatlaydi. Bu esa ayollar uchun raqobatbardosh biznes muhitini yaratishda asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, sektorlar kesimida tahlil qilganda, ayollar boshqaruvidagi firmalar eng ko'p xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida faoliyat yuritmoqda. Bu sektorlarda biznes boshlash uchun katta sarmoya talab qilinmaydi, bu esa yangi boshlovchi ayollar uchun imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Biroq sanoat va texnologik yo'nalishlarda ayollar ishtiroki hali sekinlik bilan oshmoqda, bu esa kelajakda qo'shimcha qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini talab qiladi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha huquqiy imtiyozlari va qo'llab-quvvatlash dasturlari umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Biroq kompleks yondashuv, shu jumladan moliyaviy kirish, ta'lim

va raqamli savodxonlikni oshirish kabi masalalar bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Bu yo'nalishlar mustahkamlangan taqdirda ayollar tadbirkorligi yanada barqaror va raqobatbardosh bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati aniq ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatdiki, ayrim cheklovlar mavjud. Masalan, moliyaviy resurslarga kirish barcha hududlarda bir xil darajada emas, sanoat va texnologik yo'nalishlarda ayol tadbirkorlarning ishtiroki hali past. Bundan tashqari, biznes malaka va raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Shu sababli, mavjud imkoniyatlarni kengaytirish va qo'shimcha rag'batlar yaratish muhimdir.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqilishi mumkin:

1. Ayol tadbirkorlar uchun imtiyozli kredit liniyalari va grantlar sonini oshirish, ularni kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga jalb qilish.
2. Sanoat, texnologiya va innovatsion yo'nalishlarda ayollar ishtirokini rag'batlantirish uchun alohida dasturlar joriy etish.
3. Raqamli savodxonlik, moliyaviy boshqaruv va biznes strategiyalari bo'yicha treninglar va mentoring dasturlarini kengaytirish.
4. Aholisi kam rivojlangan hududlarda ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus imtiyozlar va infratuzilma yaratish.
5. Huquqiy monitoring va himoya: Ayollarning moliyaviy va ijtimoiy huquqlarini yanada mustahkamlash uchun qonuniy tartib va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, ayollarga berilayotgan huquqiy imtiyozlar va davlat tarafidan taqdim etilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ayollar tadbirkorligini sezilarli darajada rivojlantirdi. Shu bilan birga, mavjud cheklovlarni bartaraf etish va qo'shimcha rag'batlar yaratish orqali bu yo'nalish yanada barqaror va samarali bo'lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son. "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

4. Assembly, UN General. "Convention on the elimination of all forms of discrimination against women." Retrieved April 20 (1979): 2006.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ayol tadbirkorlar faoliyati bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
6. Axmedova, Dilbar. "AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSLARI." Scientific journal of the Fergana State University 1 (2023): 50-50.